

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING SIYOSIY MEXANIZMLARI

Asrorov Zafar Husniddin o‘g‘li

*O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi
4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlarning yangi bosqichga olib chiqilganligi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nazarda tutilgan vazifalarning dolzarbligi, belgilangan ustvor maqsadlarning ijro etish mexanizmlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “O‘zbekiston – 2030”, siyosiy mexanizmlar, siyosiy institutlar, normativ-huquqiy hujjatlar, jamoatchilik nazorati, parlament nazorti.

Bugungi zamonaviy globallashuv sharoiti mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishni talab etilmoqda. Shu asnosda 2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158 sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu strategiya orqali xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsad qilingan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining dolzarbligi

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi yuqori ahamiyatga ega bo‘lib jamiyat va davlat hayotining muhim jabhalarini qamrab olgan, jumladan barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash iborat hisoblanadi.

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI:

I	Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish	44 ta maqsad
II	Barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali aholi farovonligini ta‘minlash	17 ta maqsad
III	Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish	12 ta maqsad

IV	Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish	16 ta maqsad
V	“Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish	11 ta maqsad

Jumladan *“Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish”* yo‘nalishi doirasida asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Aholining o‘rtacha umr davomiyligini 78 yoshga yetkazish;
- Tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo‘g‘inning o‘zida hal etishga erishish;
- Bolalarni maktabgacha ta‘lim va tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish, “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta‘lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish;
- 2026 yilga qadar kambag‘allikni 2022 yilga nisbatan 2 barobarga kamaytirish.

“Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash” yo‘nalishi doirasida esa:

- Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va uning aholi jon boshiga ko‘rsatkichini 4 ming dollarga yetkazish;
- Sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish;
- Hududlarda 1 million xonadonli uy-joylarni qurish;
- Iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish;
- Qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish;
- Eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish.

Strategiyaning ijro mexanizmlari

I. Respublika Komissiyasi. Prezident farmoni bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilangan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi O‘zbekistonda har bir yilga beriladigan nomlardan kelib chiqib qabul qilinadigan Davlat dasturlari asosida amalga oshirib boriladi. Strategiyaning to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish, shuningdek, uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlarni tayyorlash va ijrosini muvofiqlashtirish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklangan. Ushbu komissiya Bosh vazir Abdulla Aripov raisligidagi komissiya a‘zolaridan iborat¹. Jumladan ushbu

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son, 2-ilova

hamda 5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish kabi islohotlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Strategiyada ta'lim tizimining barcha bosqichlarida 2030-yilgacha belgilangan vazifalar keyingi 5 yilda o'zining samarasini berishini prognozlash mumkin.

II. “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash” deya nomlangan ikkinchi yo‘nalish 17 ta maqsadni, xususan, “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni hamda uning “drayver” sohalarini rivojlantirish, hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, mamlakatimizning investisiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integrasiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini yuksaltirish, qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin o‘stirish, O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish kabi islohotlarni amalga oshirishni ko‘zlagan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish mexanizmi sifatida 2023-2024-yillarda **55 ta amaliy tadbirlar** rejasi, **75 ta maqsadli ko‘rsatkichlar** hamda **29 ta ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar** ro‘yxati keltirilgan.

Ta’kidlash joizki, mazkur yo‘nalishlar doirasida kelgusi yetti yilda iqtisodiyot hajmini ikki barobarga oshirish, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollar, aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan, shu bilan birga, 2030-yilga borib yillik inflyasiyani 5-6 foiz darajasida ta’minlash, hududlarning investision reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish, dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil qilish, “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish, urbanizasiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish choralarini ko‘rish hamda mamlakatda qulay investisiyaviy va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish maqsad qilingan⁴.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

III. Uchinchi yo‘nalish “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish” deb nomlangan bo‘lib, unda 12 ta maqsad jumladan, respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash, irrigasiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish, “Yashil energiya” texnologiyalarini keng amalga oshirish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste‘molini kamaytirish, respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon”⁵ umummilliy loyihasini rivojlantirish, o‘rmonlar maydonini kengaytirish, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta‘sirini yumshatish, iqlim o‘zgarishi salbiy ta‘sirining oldini olish, biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta‘minlash, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash hamda atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish belgilangan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish mexanizmi sifatida 2023-2024-yillarda **21 ta amaliy tadbirlar** rejasi, **39 ta maqsadli ko‘rsatkichlar** hamda **15 ta ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar** ro‘yxati keltirilgan⁶.

IV. To‘rtinchi yo‘nalish “Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlangan bo‘lib, unda 16 ta maqsad mavjud bo‘lib ushbu maqsadlarni amalga oshirish mexanizmi sifatida 2023-2024-yillarda **26 ta amaliy tadbirlar** rejasi, **41 ta maqsadli ko‘rsatkichlar** hamda **25 ta ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar** ro‘yxati keltirilgan, xususan, aholi farovonligini ta‘minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka va xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish, mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformasiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish, davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini hamda inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta‘minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda ma‘muriy

⁵ Ekologik muammolar va davlatning ekologik siyosati. Mamatqulov.S.B Ta‘lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 15(1), 168–173

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.09.2023 yildagi PQ-300-son (3-, 3a-, 3b-illovalar)

adliya tizimini yanada rivojlantirish, sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmat va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish, advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish hamda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish ko'zlangan.

V. Beshinchi yo'nalish **“Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish**” deb nomlangan bo'lib, unda 11 ta maqsad jumladan, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish, Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, an'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish, Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish, tashqi mehnat migrasiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish, fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish, jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish, favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish, chegaralar xavfsizligini mustahkamlash hamda jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish kabi islohotlar o'rin olgan. Yuqoridagilarni amalga oshirish mexanizmi sifatida 2023-2024-yillarda **23 ta amaliy tadbirlar** rejasi, **21 ta maqsadli ko'rsatkichlar** hamda **11 ta ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar** belgilangan.

Xulosa o'rnida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmoni shuningdek kelgusida qabul qilinadigan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar “O'zbekiston – 2030” strategiyasini yillar kesimida rejalashtirilgan islohotlarni sifatli va o'z vaqtida ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, undagi yo'nalishlarning barchasida xalq va mamlakat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yiladi. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi nafaqat yurtimizning 2023-2030-yillardagi taraqqiyot yo'lini, balki uning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi hujjatdir. Undagi maqsad va vazifalarning ijrosi o'z vaqtida ta'minlanishi esa davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni
2. “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.09.2023 yildagi PQ-300-son
3. <https://president.uz/>
4. <https://lex.uz/>
5. <https://Uzbekistan2030.uz/>
6. <https://strategy.uz/>